

SUN'IY INTELEKT VA UNING INSONIYAT HAYOT TARZIGA BO'LGAN TA'SIRI

Karimov Islomjon Isroiljon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Gmail: islomjonkarimov2775@gmail.com

Annotatsiya: *Ilmiy izlanishlar va ixtirolar hayotga tadbiiq etilishi bilan maishiy hayotimizda paydo bo'lgan zamonaviy hayot innovatsiyalari yangi bosqichga o'tib, sun'iy intellekt (artificial intelligence) keng qo'llanadigan davrga zamin tayyorlamoqda. Ushbu maqolada insonlarning yashash tarzida bo'layotgan, bo'ladigan o'zgarishlarga sun'iy intellekt tomonidan bo'luvchi ta'sirlar haqida ijtimoiy-falsafiy mulohaza yuritiladi va atroflicha muxokama etiladi.*

Kalit so'zlar: *inson idroki, innovatsiya, texnologik ishsizlik, robotlar, sun'iy intellekt, qurollanish poygasi, ijtimoiy o'zgarishlar, insoniyat, globallashuv, modernizatsiya.*

Abstract: *With the application of scientific research and inventions to life, modern life innovations that appeared in our everyday life are entering a new stage, preparing the ground for the era of widespread use of artificial intelligence. In this article, a socio-philosophical opinion is made and discussed in detail about the effects of artificial intelligence on the changes in the way of life of people.*

Key words: *human perception, innovation, technological unemployment, robots, artificial intelligence, arms race, social changes, humanity, globalization, modernization.*

Аннотация: *С внедрением в жизнь научных исследований и изобретений современные жизненные инновации, появившиеся в нашей повседневной жизни, выходят на новый этап, подготавливая почву для эпохи широкого применения искусственного интеллекта. В данной статье высказывается и подробно обсуждается социально-философское мнение о влиянии искусственного интеллекта на изменения в образе жизни людей.*

Ключевые слова: *человеческое восприятие, инновации, технологическая безработица, роботы, искусственный интеллект, гонка вооружений, социальные изменения, человечество, глобализация, модернизация.*

Kirish

Hayotni modernizatsiya qilish, yangilikka intilish insoniyatning ilk paydo bo'lgan davrlardan beri yashash imkoniyatlarini va sharoitlarini yaxshilab borgan. Dastlab insonlar o'ylab topgan sodda inovatsiyalar ularning mehnat unumdorligini oshirgan, ishlash mexanizmi sodda ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa, asta-sekinlik bilan ibtidoiy qurilmalarni o'rganib va takomillashtirishni davom ettirgan insonlar inson boshqaruvi bilan mehnatdagi foydali ish koeffitsiyentini oshirgan edi. Sun'iy intellekt sifatida taqdim etilayotgan qurilmalar insonlarning bevosita boshqaruvisiz ham faoliyat ko'rsata oluvchi yangi davr mashina, robot va texnologiyalari hosoblanadi. Insoniyatning taraqqiyot darajasi yetib kelgan ushbu davr insonlar oldiga bir qator munozarali masalalarni qo'yimoqda.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar fanning turli sohalarida faoliyat olib boradigan mutaxassislar tomonidan tahlil etiladi. Faylasuflar, jamiyatshunoslar, statistik tahlilchilar, siyosatchilar, ixtirochilar, olimlar, mustaqil tadqiqotchilar, yozuvchilar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy ishlarda yoritib berilgan. Zamonaviy fan yutuqlari haqida qilingan o'rganishlar natijalari real tadqiq etib borilishida xalqaro tajriba yutuqlarini umumlashtirish yaxshi samara beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola mavzu yuzasidan ilmiy yondashuvlar va prognozlarni ko'rib chiqadi. Odamlar hayotiga AI olib kelgan yengilliklar va muammoli masalalar insonlar turmush tarzini qay tarzda yangi bosqichga olib chiqishi va buning natijalari ijtimoiy-falsafiy mushohada etiladi. Bir qator muammo yechimlari taklif etiladi. Asosiy muammolarning sabab va oqibatlarini yoritib beriladi. Xorijiy tajribada ilgari surilayotgan ilg'or fikrlar mushohada etiladi.

Tahlillar va natijalar

Sun'iy intellekt (AI) odamlar yoki boshqa hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan aqldan farqli o'laroq, mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan aql, ma'lumotni idrok etish, sintez qilish va xulosa chiqarishdir.[1] XX-XXI asrlarda robotlar, idrok qobiliyatiga ega mashinalar va boshqa turdagi qurilmalar jamiyat hayotidan o'rin ola boshladi. Insoniyat bajaradigan ko'plab yumushlarni sun'iy intellekt o'z zimmasiga olishi bilan, insoniyat idroki va sun'iy idrok o'rtasida raqobat paydo bo'lishi, inson intellektual qobiliyatiga nisbatan qarashlarning o'zgarishi bilan bog'liq masalalar ixtirochilar, siyosatchilar, faylasuflar, jamiyatshunoslar va boshqa sohalarida faoliyat olib boruvchi keng jamoatchilik tomonidan muxokama etilmoqda. Insoniyat turmush

tarzining inson tomonidan boshqariladigan mehanizmlar va qurilmalar (kombayn, televizor, tegirmon, avtomobil va x. k.) natijasida qanchalik o'zgarganiga guvoh bo'lib turgan insoniyat ushbu muvaffaqiyatlarning yanada takomillashib, ularda idrok qobiliyatini oshirishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan bir qator muammolarga to'xtalib o'tamiz.

Avvalambor, sun'iy intellekt insonlarning bilim olishga bo'lgan intilishlari va inson tafakkuriga bog'liq jarayonlarga munosabatni tubdan o'zgartirishi mumkin. Sun'iy intellektning ko'rinishlaridan biri bo'lgan internet va undagi axborot bazasi deyarli xar sohadagi axborotlarni o'zida jamlab, insonlarga xizmat qilmoqda. Ba'zi mulohazalarga ko'ra, bilimlarning haddan ziyod ko'payib borishi insonlarda bilimlarni o'rganish va uni boyitishga ehtiyojni kamaytiradi. Chunki insoniyat ilk paydo bo'lgan davrlarda o'zlari va olam to'g'risida nisbatan oz ma'lumotlarga ega edilar. Agarda insonlar bir sohada ma'lumot to'plamoqchi bo'lsalar, cheklangan ma'lumotlar bilan kifoyalanganlar va ma'lumotlar bazasining ozligi natijasida keng mutaxassislikka ega bo'lganlar. Barcha bilimlarni birgalikda o'rganib tadqiq etib borishga ularda imkon yetarli edi. Bir insonning bilim va zakovatli bo'lishi va yangiliklarni o'ylab topishi nisbatan ancha oson edi. Qadimgi yunonistonlik olim Aristotel tomonidan fanlarning tarmoqlarga bo'linishi ularning tor mutaxassisliklarga yo'naltirilishi sari muhim qadam bo'ldi. Keyinchalik ushbu fanlar borgan sari kengayib borib tarmoqlashish jarayoni davom etdi. Misol uchun falsafada ontologiya, etika, estetika, falsafiy antropologiya, sotsiologiya, teologiya, gnesologiya va boshqa tarmoqlar paydo bo'lib, ushbu tarmoqlashuv ham yana davom etmoqda.

Ma'lumotlarning ko'payib borishi natijasida insonlar yetarli ma'lumot bazasiga ega bo'lsalarda, avvalgidek ma'lumotlarni o'zlashtira olmaydilar. Chunki insonlarning intellektual qobiliyati va umri kamlik qiladigan darajada o'rganish uchun yetarli bo'lmaydigan ilmlar jamlandi. Hozirgi kunda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi olimlar fanning ayrim sohasidagina mutaxassis bo'la oladi. Chunki zamon o'zgarib borishi bilan inson intellekti ham tor mutaxassislikka moslashib bormoqda. Xirurgiya bo'yicha va stomatologiya bo'yicha doktorlarning har ikkisi ham shifokorlik qilsada, biri ikkinchi birining o'rnini bosa olmaydi. Robotlar va ongli qurilmalar esa inson idrokidan o'zib ketib hattoki xavfga ham sabab bo'lishi mumkin. Agar mashina miyalari umumiy intellekt bo'yicha inson miyasidan ustun bo'lsa, unda bu yangi superintellekt odamlarni Yerdagi hukmron hayot shakli sifatida almashtirishi mumkin. Etarli darajada aqlli mashinalar o'z imkoniyatlarini inson kompyuter olimlariga qaraganda tezroq yaxshilashi mumkin va natija odamlar uchun ekzistensial falokat bo'lishi mumkin.[2]

Ikkinchidan, sun'iy intellektning ko'plab sohalarga kirib borishi natijasida texnologik ishsizlik xavfi paydo bo'lishi mumkinligi insonlarni tashvishga solmoqda.

Texnologik ishsizlik ishsizlikning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, texnologik yutuqlarning keng, ayrim xollarda qisman qo‘llanishi natijasida insonlar mehnatini minimallashtirish natijasida kelib chiqadi. Misol uchun biror tashkilot xisobchi hodimlarini ishdan ketkazib, xisoblash apparatlarining xizmatidan foydalanadi. Robot va texnologiyalar, zamonaviy qurilma va ixtirolar asta-sekinlik bilan insonlar mehnatini talab qiluvchi sohalarga kirib bormoqda. Qurilish, xizmat ko‘rsatish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda robotlar, mexanizmlar va boshqa inson idroki bilan ixtiro etilgan vositalardan foydalaniladi. Agarda sun‘iy intellekt bergan ushbu yangiliklardan to‘laqonli tarzda foydalanilsa, ko‘pchilik insonlarda ishsizlik muammosi paydo bo‘lishi mumkin.

Darhaqiqat, jamiyat rivoj topishi barobarida yangi kasblar va ish o‘rinlari ham paydo bo‘layotgani bunda ijobiy natijalarni ko‘zda tutsada, inson mehnatiga talab kamayishi borgan sari sezilib bormoqda. Ushbu jarayonga munosabat bildiruvchi insonlar optimistik yoki pessimistik ruxda munosabat bildirib, samarali choralarni izlamodalar. Hindistonlik siyosatchi ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga “kishilar “mehnatni qisqartirish”da davom etadilar, minglab odamlar ishsiz qolguncha va o‘lim uchun ochiq ko‘chalarga tashlanishadi. Ochlikdan”. – deb munosabat bildirgan edi.[3] Ana shunday choralardan biri texnologik muvaffaqiyatlardan voz kechish va taqiqlash yo‘lidir. Biroq bunda davlatning iqtisodiy imkoniyatlari cheklanadi va salbiy ta’sirlarga ham sabab bo‘ladi. Ayrim sohalarda sun‘iy intellekt insonlar uchun bajarish imkonsiz bo‘lgan, qiyinchilik tug‘diruvchi, hayot uchun xavfli bo‘lgan bir qator mehnatlarni amalga oshiradi. Yana bir yo‘l ishsizlar uchun nafaqa to‘lovlari berib borgan xolda, jamiyatdagi ishsizlik muammosini qisman yumshatishdir. Biroq davlat iqtisodiy imkoniyatlari har doim ham ishsizlik nafaqasi berishga tayyor bo‘lmasligi, subsidiyalar odamlarga ish xaqi barobarida bo‘lmasligi mumkinligi bu omilning muammoga to‘la yechim bo‘la olmasligini ko‘rsatadi.

Ish vaqtini qisqartirish yo‘li bilan texnologik ishsizlikka barham berish ishchilar haftalik ish soatini qisqartirgan holda texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Ya’ni ishni bo‘lishib olish bilan har ikki mehnat resursidan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Jamoatchilik ishlari tashkil etish bilan yangi ish o‘rinlari yaratish muammoning yana bir samarali yechimidir. Ish haqi nisbatan kamroq bo‘lsada, ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun ulkan imkoniyat bo‘lishi mumkin bo‘lgan bu omil bir qator mamlakatlarda qo‘llanmoqda. Kasbiy ta’lim berish va yangi mutaxassislikka yo‘naltirish orqali ishchilar muammosini xal qilish uchun davlat dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash bunda eng maqbul yechimlardan biridir. Malaka darajasi yuqori bo‘lmagan ishchi hodimlar o‘z ish o‘rinlarini yuqori malakali ishchilarga qaraganda ko‘proq yo‘qotadilar.

Uchinidan, Dunyoning mafkuraviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jabhalarda farqli guruxlarga bo‘linishi “qurollanish poygasi”da yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bunda Yaponiya, AQSH, Yevropa mamlakatlarining ilmiy salohiyati yuksakligi, urush qurollarini ishlab chiqishlari va harbiy sanoatga sun’iy intellektni faol joriy etishlari natijasida, dunyo mamlakatlarida qurollar zahirasi va turi ko‘payib bordi. Ayrim mamlakatlar harbiy sanoatida bu kabi tadqiqotlar borgan sari kuchayib, xavfli tusga kirmoqda. Rossiya Harbiy-sanoat qo‘mitasi 2030-yilgacha masofadan boshqariladigan va sun’iy intellektga ega robot platformalaridan Rossiya jangovar quvvatining 30 foizini olish rejalarini ma’qulladi.[4] Takomillashib borayotgan qurollar qachondir nosozlikka uchrashi va buning natijasida insonlarning ular ustidan nazorati yo‘qolishi oqibatlarini hatto tasavvurga sig‘dirish mumkin emas.

Fan-texnika rivoji sekinlik bilan odimlayotgan mamlakatlarda esa, mamalakat mudofaasi bilan bog‘liq muammolar ko‘paymoqda. Hattoki bu jarayonlar “sun’iy intellektlar sovuq urushi” nomi bilan ham atalmoqda. Xitoy, AQSH, Rossiya, Turkiya kabi mamlakatlar dunyo gegemonligi yo‘lida harbiy salohiyatini oshirishga urinmoqdalar. Agarda ishlab chiqarilgan qurollar va vositalarning barchasi ishga solinsa buning oqibatlari faqatgina bir mamlakat uchungina emas, balki butun yer sharida xalokatga tomon yo‘l bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Yangi davr fan va innovatsiyalari shu darajada modernizatsiyalashdiki, ular insonlarning hayotini nafaqat yengillashtirishi mumkin, balki ularning yaqin kelajakda yuzlashishi mumkin bo‘lgan real xavfga ham aylanishi mumkin. Bir qator faol jamoatchilik vakillari va davlatlar texnologiyalar ishlab chiqilishida ham axloqiy me’yorlar nazarda tutilishi kerakligini anglab yetmoqdalar. Bunda ayniqsa, harbiy qurollar ishlab chiqaruvchi korxonalar va davlatlarga nazoratga olish imkoniyatidan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan, tizginsiz tarzda insoniyatga qarshi jinoyatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan qurollarning savdosi va ishlab chiqarilishining cheklanishi yoki tugatilishi ijobiy natijani ko‘zlaydi. Terrorizm va uyushgan jinoyatchilik bilan mashg‘ul kuchlarning nazoratiga o‘tgan sun’iy idrokka asoslangan qurollarning insoniyatga keltiradigan musibatlari mislsiz bo‘lishini e’tiborga olish lozim. Texnologik ishsizlik darajasi oshib borishi bilan boy va nochor aholi daromadlari mislsiz farqlanib borib, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni avj oldirishi mumkin. Texnologiyalar ishchilarni siqib chiqarishining oldini olish va inson imkoniyatlari cheklangan holatlardagina AI texnologiyalaridan foydalanish kerakligini ish beruvchilar va keng jamoatchilikka targ‘ib qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_intelligence
2. Henderson, Caspar (17 July 2014). *“[Superintelligence by Nick Bostrom and A Rough Ride to the Future by James Lovelock – review](#)”*. *The Guardian*. Retrieved 30 July 2014.
3. For a small collection of quotes by Gandhi relating to his view that innovation should be slowed while unemployment exists see [The place of machines](#)
4. Walters, Greg (7 September 2017). *“[Artificial Intelligence Is Poised to Revolutionize Warfare](#)”*. *Seeker*. Retrieved 8 May 2022.